



SANOATNI RIVOJLANTIRISH - DAVR TALABI - UY MAISHIY TEXNIKALARINING FOYDALARI

Baltabayeva Maloxat Ortiqaliyevna

Farg'ona davlat universiteti, sirtqi bo'lim,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi.
e-mail: baltabaeva_67@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6528933>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01- may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 15- may 2022

KALIT SO'ZLAR

atrof-muhit himoyasi, suv resurslari, avtomat kir yuvish mashinalari, toza suv, suv ifloslanish, markazlashgan suv uzatish tizimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada atrof-muhit va suv resurslarini himoya qilishda uy maishiy texnikalari, aynan, avtomat kir yuvish mashinalarni ishlatish natijasida atrof-muhitga va ayniqsa suv resurslarini himoya qilsiniga ijobiy ta'siri haqida yozmoqchimiz. Maqola mavzusi uzoq yillik ilmiy kuzatishlarimiz natijasidir. Maqolada ko'tarilayotgan mavzu atrof-muhit himoyasi, suv resurslari va kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish masalalariga taalluqli bo'lib, umumiy yo'nalishi tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotini jahonning tez rivojlanayotgan davlatlari iqtisodiyoti darajasiga ko'tarishdek maqsadni oldiga qo'ygan davlatimiz rahbari 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi Ozbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishda ettita strategiyaga asoslangan, ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos modelini ishlab chiqdi. Respublikaning iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha tanlangan ushbu model bugun jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etildi hamda "o'zbek modeli" deya nom oldi.

Ko'zda tutilgan islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida iqtisodiy o'sishning barqarorligi va mutanosibligi ta'minlash maqsadida, uchinchi strategiyaning vazifasi "Milliy iqtisodiyotni

jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash", xususan:

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish.

Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish.

Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish. Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning



eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 mln. AQSh dollariga yetkazish.

Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 mln. AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish.

Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish.

Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Tabiatni, atrof-muhitni himoya qilish har bir inson uchun muhimdir, chunki tabiat sofliги yoki ifloslanishi qaysidir bir inson emas balki yer yuzidagi hamma insonlar uchun birday ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Ilmiy izlanishlar va kuzatuvlarimiz natijasida shunday muammo va holatlarga duch keldikki, ularni umumlashtirib, atrof-muhit muhofazasi uchun mahalliy va mamlakat miqyosida bir kichik yo'nalish va amaliy taklif ishlab chiqdik. O'ylaymizki, shu taklifni amaliyotga tadbiiq qilsak, bundan

hamma foyda qiladi: tabiat, insonlar va maishiy texnika ishlab chiqaruvchilari.

Ilmiy taklifimizning qisqacha mazmuni shundan iboratki, mamlakatimiz hamma hududlarida avtomat kir yuvish mashinalarini ishlatish orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, suv resurslarini tejash va ifloslanishini kamaytirishga erishish mumkin. Maqolada ushbu taklifga olib kelgan sabablar, yechim va ijobiy natijalar haqida batafsil yozishga harakat qilamiz.

O'zbekistonning ko'p qishloq hududlariga markazlashgan suv uzatish tizimi olib borilmagan. Biz yashaydigan Fargona viloyatida so'nggi yillarida ko'p chekka qishloqlarga markazlashgan suv uzatish tizimi orqali suv olib borilyapti. O'rganishlarimiz natijasida bildikki, artezian va drenaj suvlar avtomat kir yuvish mashinalari uchun qattiq ekan. Markazlashgan suv uzatish tizimi orqali keladigan suv avtomat kir yuvish mashinalari ishlashi uchun ancha yumshoq ekan.

Metodlar

Markazlashgan suv uzatish tizimi yetib kelmagan qishloqlarda suv ishlatish va maishiy chiqindi suvlarni ariqlar va kanallarga to'g'ridan to'g'ri oqizib yuborish natijasida suv resurslari katta zarar ko'rmoqda, ya'ni undagi o'simlik va hayvonot dunyosi yuqolib bormoqda. Markazlashgan suv kelmaganligi uchun qishloqlarda quduqlar qazilgan, soy suvlarini nasos bilan tepaga olib chiqib qishloq ahli ariqlarda kir yuvadi, uni ta'sirida ariqlar va ular borib quyiladigan suv omborida baliqlar yuqolib ketmoqda. Yana bir salbiy ta'siri ariq suvlari oldinlari ichimlik suvi sifatida ishlatilgan, hozir esa ifloslanib ketayotganligi uchun ichishga



yaroqsiz bo'lib qolgan. Qishlog'imizdan oqib o'tadigan daryo qo'shni Qirg'zistondan boshlangan bo'lib, uning suvlari 10-15 yillar davomida o'zanlari tozalanmay qo'yganidan suvlari ancha ifloslanib qolgan. Hozirda ushbu daryo o'zanlarini tozalashni boshlashdi, yangi harakatlar boshlandi. Daryo va ariqlar suvlari ifloslanishining boshqa sabablaridan yana biri bu qishloqlarda yashovchi inson omili.

Atrof-muhitning maishiy chiqindilar bilan ifloslanishiga misol sifatida Boltiq dengizini keltirish mumkin. Boltiq dengizida suv o'tlari ko'payganligi qayd etilmoqda, bu dengiz suviga daryolar va yo'ng'ir suvlari orqali oqib tushayotgan kimyoviy moddalarning ko'payganligi natijasidir, suv o'tlari tagida kislorod kamayib ketish natijasida suv osti olami yasholmay qolib qirilib ketish xavfi ortadi.

Natijalar

Aholi maishiy chiqindi suvlari, ya'ni, agar kir yuvish mashinasi yarim avtomat mashina yoki qo'lda yuvilsa mag'zava (chiqindi) suvlar ariqqa to'kiladi. Avtomat kir yuvish mashinalaridan chiqqan mag'zava (chiqindi) suvlarni maxsus chuqur kavlab o'sha joyga to'kiladi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, avtomat kir yuvish mashinalari ko'p jihatdan aholiga va suv resurslarini toza saqlashga foydasi tegadi. Shu o'rinda avtomat kir yuvish mashinalari ishlab chiqaruvchilariga bir necha tavsiyalar bermoqchimiz:

- avtomat kir yuvish mashinalar narxini arzonlashtirish kerak. Modomiki, mahalliy aholi soni 10 yil davomida 200ta honadondan 500taga ko'paydi, demak, 2,5 barobarga oshdi;

- texnikani aholiga islomiy halol usulda yuvish uchun qulay sharoit yaratiladi;
- hududlarda servis markazlari ochish;
- hudud aholisini o'quv markazlarida ishlashga tayyorlash.

Avtomat kir yuvish mashinalari narxi arzonlashishi natijasida har bir oila sotib olishga erishadi va ishlab chiqaruvchilar savdo aylanmasini ko'paytiradi, servis markazlarida yangi ish o'rinlari ochiladi, aholiga kir yuvish mashinalarini tuzatish oson bo'ladi, hududlarda o'rnatilgan servis markazlari orqali ishlab chiqaruvchilarga katta daromad keladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, iste'molchini narxga bo'lgan qarashlarini e'tiborga olish, talab va taklif mexanizmining uzviy va doimiy bir bo'lagi bo'lib qolmoqda. Maishiy texnikani ishlab chiqarish jarayonidagi muammolarni xaridor ko'zi orqali aniqlash raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarishda stimulg'a aylanib ulgurdi. Ikkinchi tarafdin esa, butun mamlakatimiz har bir hududida yashovchi aholi, ayniqsa ayollar maishiy ishlarga ketadigan vaqtini boshqa madaniy hordiq chiqarishga yoki farzandlari tarbiyasiga sarflashi mumkin bo'ladi.

Ushbu maqolada keltirilgan fikrlar va tavsiyalar amalga oshadigan bo'lsa, yurtimizda va hududimizda yangi ish o'rinlari ochilishi natijasida ko'plab mutaxassislar tayyorlanadi va bu ham mamlakaimiz iqtisodiyotining umumiy rivojlanishiga qo'shilgan ijobiy hissa bo'ladi. Yurtimiz prezidenti o'z chiqishlarida aholi turmush farovonligi va turmush darajasini ko'tarish bo'yicha bildirgan



fikrlarini amalga oshirishga qo'shilgan hissa bo'ladi.

Munozara

Daryolar sayyoramiz aholisi uchun toza suvning asosiy manbai hisoblanadi. Ular ham inson hatti-harakatlaridan azob chekishadi. Atrof muhitning asosiy manbai -tozalash va filtrlash uchun maxsus choralarni qo'llamasdan, yaqin atrofdagi bir xil zavod va korxonalar daryolarning toza suviga chiqindi mahsulotlarini chiqaradi. Suvning yana boshqa ifloslanish manbai bu insonlar va ularning tabiatga bo'lgan zarar beruvchi munosabatidir. Sayyoramizning oddiy aholisi daryolar sohilida katta miqdorda axlat qoldiradilar. Qishloq aholisi daryolarga ko'proq zarar yetkazadi, chunki ular ko'pincha qirg'oqdagi hayvonlardan chiqindi mahsulotlarini tushiradilar. Qishda har bir narsa qor bilan qoplangan, bahorda qor

eriydi, uning suvlari hayvonlar chiqindilari - go'ng bilan daryoga oqib tushadi.

Xulosa

Yer sayyoramiz bergan eng qimmatli narsa suvdir. Suvsiz odam yoki hayvon tug'ilmaydi. Ushbu tabiiy resursni saqlab qolish uchun har kuni inson kuchi va energiyasining eng muhim manbalaridan foydalanishni kamaytirish kerak. Suvsiz hayot, flora va fauna o'ladi. Maqolamizda berilgan fikr va tavsiyalar yurtimiz tabiati, atrof-muhitini asrab-avaylashda foydasi tegib, daryolar va ariqlarimizdagi suvlar toza bo'lishi, qishloq aholisida ham avtomat kir yuvish mashinalari ishlatish orqali mehnatlari yengillashi natijasida boshqa madaniy hordiq chiqarishga vaqt qolishi bizning asosiy maqsadimizdir. Ishonamizki, yaqin yillarda ushbu fikr va tavsiyalarimiz amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Development Strategy Center. 2022–2026 ЙИЛЛАРГА МЎЛЖАЛЛАНГАН ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ “TARAQQIYOT STRATEGIYASI” MARKAZI. www.strategy.uz
2. Sultonov P.S., Ahmedov B.P. “Ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish”. Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2004
3. Baltabayeva, M., & Kodirova, D. (2022). The need to provide the priority of spiritual and educational processes in the modern education system. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 423-427.
4. KDA Baltabaeva Malokhat Ortikalievna. (2022). BENEFITS OF HOUSEHOLD APPLIANCES IN THE PROTECTION OF THE ENVIRONMENT AND WATER RESOURCES. *Thematics Journal of Economics* 8 (1), 2–5.
5. Юлдашева, Г. А., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). ИННОВАЦИИ В РАМКАХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИННОВАЦИОННЫХ СИСТЕМ. *Интернаука*, (26), 6-8.